



## 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni



O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari davolanish, qarindoshlarni yo'qlash, sayyohlik, ish, o'qish, xizmat yuzasidan va boshqa maqsadlarda kelgan xorijlik shaxslardan iborat.

Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davolanish, qarindoshlarni yo'qlash, sayyohlik, ish, o'qish, xizmat yuzasidan va boshqa maqsadlarda ketgan shaxslardan iborat.

### O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni




2018 yil yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 4666,5 ming kishini tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 martaga ko'p. O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 2429,6 ming nafari (52,1 %) erkaklar, 2236,9 ming nafari esa (47,9 %) ayollarni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 10812,0 ming kishini tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko'p. Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 6368,9 ming nafari (58,9 %) erkaklar, 4443,1 ming nafari esa (41,1 %) ayollarni tashkil etadi.


O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari orasida Qozog'iston Respublikasi 40,2 % bilan asosiy o'rinni egallaydi. Keyingi o'rinlarda Tojikiston 24,8 %, Qirg'iziston 16,7 %, Rossiya 7,4 %, uzoq xorijiy davlatlardan esa Turkiya 1,1 %, Xitoy 0,6 %, Janubiy Koreya 0,5 %, Xindiston, Germaniya, Yaponiya 0,3 % dan.

Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 53,4 % Qozog'iston Respublikasiga, 22,2 % Qirg'iziston Respublikasiga, 11,6 % Tojikiston Respublikasiga, 8,2 % Rossiyaga tashrif buyurgan. Uzoq xorijiy davlatlardan esa 1,3 % Turkiyaga, 0,6 % Janubiy koreyaga, 0,3 % BAAGA, 0,2 % dan Xitoy, Germaniya, Yaponiyaga tashrif buyurgan.

### O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, %




### Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, %




2018 yil yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 7,7 ming nafari (39,0 % erkaklar, 61,0 % ayollar) o'qish maqsadida, 36,0 ming nafari (84,0 % erkaklar, 16,0 % ayollar) tijorat maqsadida, 41,6 ming nafari (37,8 % erkaklar, 62,2 % ayollar) davolanish maqsadida, 30,0 ming nafari (68,7 % erkaklar, 31,3 % ayollar) ishlash maqsadida, 41,1 ming nafari (83,0 % erkaklar, 17,0 % ayollar) xizmat yuzasidan, 327,2 ming nafari (52,4 % erkaklar, 47,6 % ayollar) sayyohlik maqsadida, 3461,9 ming nafari (45,3 % erkaklar, 54,7 % ayollar) qarindoshlarni yo'qlash maqsadida kelgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 37,7 ming nafari (65,9 % erkaklar, 34,1 % ayollar) o'qish maqsadida, 46,7 ming nafari (46,1 % erkaklar, 53,9 % ayollar) davolanish maqsadida, 307,7 ming nafari (52,0 % erkaklar, 48,0 % ayollar) sayyohlik maqsadida, 84,4 ming nafari (91,3 % erkaklar, 8,7 % ayollar) xizmat yuzasidan, 3375,6 ming nafari (73,3 % erkaklar, 26,7 % ayollar) ishlash maqsadida, 6117,2 ming nafari (49,3 % erkaklar, 50,7 % ayollar) qarindoshlarni yo'qlash maqsadida chet elga ketgan.


## O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, %



**Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, %**




## O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi, %




O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy safar maqsadi qarindoshlarni yo'qlash 74,2 % (3461,9 ming kishi). Keyingi o'rinlarda, 7,0 % (327,2 ming kishi) – sayyohlik, 0,9 % (41,1 ming kishi) – xizmat yuzasidan, 0,6 % (30,0 ming kishi) – ishlash maqsadida, 0,9 % (41,6 ming kishi) – davolanish, 0,2 % (7,7 ming kishi) – o'qish maqsadida.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni, *ming kishi*



Shu bilan birga chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy safar maqsadlari qarindoshlarni borib ko'rish (56,6 % - 6117,2 ming kishi). Keyingi o'rinlarda ishlash maqsadida – 31,2 % (3375,6 ming kishi), xizmat yuzasidan – 0,8 % (84,4 ming kishi), sayyohlik maqsadida – 2,8 % (307,7 ming kishi), davolanish maqsadida – 0,4 % (46,7 ming kishi), o'qish maqsadida – 0,3 % (37,7 ming kishi).

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, *ming kishi*



Davlat statistika qo'mitasi  
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi  
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

X.Murodhujaev

Tel: 71-230-80-69